

XIX asr birinchi yarmida Buxoro va Rossiya diplomatik munosabatlariga doir ba`zi tarixiy manbalar

TDSHI “ Jahon siyosati, tarixi va falsafasi ” Tarixshunoslik va
Tarixiy tadqiqotlar metodlari yo`nalishi 2-kurs magistranti
M.Madjidov

Annotatsiya

Mazkur maqola **XIX asr birinchi yarmida Buxoro va Rossiya diplomatik munosabatlariga doir ba`zi tarixiy manbalar masalasiga bag'ishlangan**, Buxoro va Rossiya imperiyasi o`rtasidagi diplomatik aloqalar haqida shu bilan birga o`sha davrdagi bu davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli to`g`risida ham qimmatli ma`lumot beruvchi manbalar sirasiga kiradi. Shuning uchun ularni bugungi kun nuqtai nazaridan yanada chuqur o`rganish, tahlil qilish alohida ahamiyat kasb etadi

Buxoro amirligi Rossiya bilan o`z munosabatlarini rivojlantirishga katta e`tibor bergan. Xususan, ikki tomon ham bu munosabatdan manfaatdor bo`lgan. XIX asrdan boshlab bu munosabatlar ancha tez rivojlandi. Savdo, elchilik aloqalari yo`lga qo`yildi. Ko`plab elchilar va savdogarlar ikki hudud bo`ylab yuborildi. Mazkur elchilar, savdogarlar safar taasurotlari haqida o`z kundaliklari, yo`l xotiralari, asarlarida yozib qoldirishdi. Shuning uchun ushbu xotiralar mazkur davr tarixi, diplomatik munosabatlarni o`rganishda muhim manbalar sirasiga kiradi.

Xususan, 1820-yilda Rossiya imperiyasi tomonidan katta diplomatik missiya tashkillashtiriladi. Ushbu missiyaga A.F.Negri boshchilik qiladi. Missiya tarkibida G.Meyendorf, E.Eversman va Budrinlar qatnashadilar. Ular faoliyati davomida yo`l xotiralarini yozib qoldirganlar.

Bundan tashqari, 1824-yilda harbiy otryad mudofaasi ostida Buxoroga yuborilgan savdo karvoning boshlig'i, E.Kaydalovning xotiranomasini va G.Spasskiyning asari ayniqsa harakterlidir. Bu asarlarda XIX asrning birinchi yarmida Buxoro va Rossiya o'rtasida olib borilgan savdo va diplomatik aloqalarning umumiy holati, o'zaro savdoda chiqariladigan va olib kelinadigan mollarning turi, hajmi, narxi, diplomatik missiya va elchiliklarning yuborilish sabablari, ularning oldiga qo'yilgan asosiy vazifalar va keltirilgan natijalarini aniqlab beruvchi juda qimmatbaho ma'lumotlar keltirilgan.¹

G.Meyendorfnig "Orenburgdan Buxoroga sayohat..." asari fransuz tilida turkolog Amediy Jobert tahriri ostida 1826-yilda Parijda nashr etilib, shu yilning o'zidayoq, nemis tilidagi tarjimasi K.Xerm va B.Sheyder tahriri bilan bosilib chiqdi.²

Ushbu kitob uch qismdan iborat bo'lib, uning oxirida Peterburg universitetining professori I.O.Senkovskiyning, M.Kelerning va X.Panderning maqolalari ilova shaklida berilgan.³

Asarda elchilik missiyasining kutib olinishi, o'lkaning geografik holati, Buxoroning ijtimoiy-iqtisodiy va davlat tuzilishi tizimli ravishda bayon qilingan. Asar asosan muallifning shahsiy mushohadasi, kishilardan eshitgan va so'rab bilgan ma'lumotlari asosida yozilib, unda keltirilgan ko'pdan-ko'p izohlar va ma'lumotlarni muallif mahalliy tarixchilar asarlaridan va yevropalik sayohatchilarning yozib qoldirilgan xotiranomalaridan keng foydalangan.

Meyendorfnig yozishicha, Rossiya bilan olib borilgan tashqi savdo Buxoro uchun katta ahamiyatga ega edi. Buxorodan eksport qilinadigan tovarlar hajmi

¹ А.Р. Мухаммеджонов, Т. Неъматов "Бухоро ва Хиванинг Россия билан муносабатлари тарихига доир баъзи манбалар". Т. 1957. – Б. 18

² G. Meyendorff. Voyage d' Orenburg a Boukhara fait en 1820, Paris, 1826, 508 p.

³ А.Р. Мухаммеджонов, Т. Неъматов "Бухоро ва Хиванинг Россия билан муносабатлари тарихига доир баъзи манбалар". Т. 1957. – Б. 19

havo yahshi kelgan yillarda sakkiz millionga yetardi. Aholining soni esa ikki yarim milliondan oshmasdi.⁴

G.Meyendorf o'z asarida Buxoro va Rossiya munosabatlari ustida to'xtar ekan, ularning tarixiga oid juda qiziq ma'lumotlar keltiradi. Ular orasida qadimda Sharqiy Yevropadan sharq mamlakatlari: Hindiston, Xitoyga o'tgan transit savdo yo'li Buxoro orqali o'tib, bu sabdoda Buxoroning vositachilik rolini ko'rsatuvchi ma'lumotlar bor. Muallif, Buxoroning Sharqiy Yevropa davlatlaribilan bo'lgan savdo aloqalari eramizgacha bo'lgan III asrdan boshlanib, somoniylar davriga (X asr) kelib ayniqsa rivojlanganligi va Chingizxon davrida buzilib, Amir Temur tomonidan yana qayta tiklanganligi to'g'risida yozadi.⁵

Meyendorf ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarga baho berar ekan ikki davlat o'rtasidagi munosabatlar qadimiyligi, uzluksizligi va rivojlanayotganligini aytib o'tgan.

Asarda o'rta asrlarda Buxoro va Rossiya munosabatlarning Sibir va Astraxan orqali olib borilishi va rus podsholari temuriylar bilansavdo muzokaralari olib borganliklari to'g'risida juda ko'p qiziq materallar berilgan. G.Meyendorf XVIII-XIX asrlarda Buxoro va Rossiya o'rtasidagi diplomatik aloqalar anchagina kengayib, o'zaro elchiliklar to'xtovsiz yuborilib turishi va Rossiyada Buxoro savdogarlari ayrim imtiyozlar bilan ta'min etilganligi to'g'risida bayon qiladi.

Bundan tashqari Budrinning yozib qoldirgan xotiranomasini ham eslab o'tish o'rinlidir. Uning xotiranomasi to'rt qismdan iborat bo'lib, birinchi qismida muallif Orenburgdan Buxorogacha bo'lgan masofani qisqacha ta'riflab beradi. Asarda shuningdek, ikki davlat o'rtasida kechgan siyosiy muzokaralar, Negri missiyasini qabul qilinishi, rus elchisi A.F.Negrining ayrim masalalar yuzasidan Buxoro amiri bilan olib borgan muzokaralari bayon etilgan. Shuningdek, Buxoro shahrining qisqagina ta'rifi, aholisi, mashg'ulotlari haqida qimmatli ma'lumotlar keltiriladi.

⁴ Н.Б.Байкова. “Россия билан Шарқ ўртасидаги иқтисодий алоқалар тарихидан”. Т. “Фан”. 1964. – Б.64.

⁵ G. Meyendorff. Voyage d' Orenburg a Boukhara fait en 1820, Paris, 1826, 522 p.

Asarda rus missiyasining Buxorodagi hayoti juda zo`r qiziqish bilan tasvirlangan. Muallif Negri missiyasining Buxoroga yetib kelishini tasvirlar ekan, bu yerda Buxoroliklar tomonidan zo`r iltifot bilan kutib olinganligi to`g`risida yozadi. Budrin o`zining bu kichik kundaligida rus missiyasi boshlig`i A.F.Negrining Buxoro hukmron doiralari bilan olib borgan muzokaralari va uchrashuvlarini mukammal ravishda tasvirlaydi. Budrin Buxoroda rus elchiligining qabul qilinishi marosimdagi tantanalar to`g`risida ham juda qimmatli ma`lumotlar beradi. Budrin o`z xotiranomasida missiyaning Buxoroda davlat hisobiga yashagani va Buxoro hukumat doiralari tomonidan, oz bo`lsa ham, unga alohida mablag` ajratilgani to`g`risida yozadi.⁶

Bulardan tashqari, Budrin o`z asarida Buxorodagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvol to`g`risida qisqa bo`lsa ham qimmatli ma`lumot berib o`tildi. Muallif mamlakat qishloq xo`jaligida paxtachilik va ipakchilik katta ahamiyatga ega ekani, ulardan turli xil matolar to`qilishini hamda Buxoroda ip va ipak mollari to`qib chiqaradigan bir qancha korxonalar mavjud ekanligi to`g`risida yozadi.

1824-yilda Rossiyadan Buxoroga yuborilgan qurolli karvonni o`rganishda shu karvonning boshlig`i E.Kaydalovning xotiranomasi bosh manba bo`lib, birinchi qismi 1827-yilda ikkinchi va uchinchi qismlari 1828-yilda Moskvada nashr etilgan. Muallif o`z xotiranomasida qurolli soqchi bilan savdo karvonining Buxoroga yuborilish sababini bayon qilib, faqatgina Qozog`iston cho`llaridagi talonchilik Rossiya-Buxoro savdosiga katta zarar yetkazganligini ta`kidlab o`tadi.

Shuningdek, E.Kayadalovga berilgan qo`llanmadan ma`lumki, rus hukumati O`rta Osiyo xonliklari, Buxoro amirligi bilan mavjud bo`lgan iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishda faqatgina katta diplomatik missiyalarnigina emas, hatto savdo karvonida ishtirok etuvchi har bir rus savdogarini ham ikki davlat o`rtasidagi munosabatlarga putur yetkazmaslik uchun maxsus instruksiyalar bilan ta`min etib yuborar edi.

⁶ Будрин. Русские в Бухаре в 1820 году. (Записки очевидца). Оренбург. 1871. – Б. 14.

Shunday qilib, E.Kaydalovning xotiranomasi 1824-yilda Rossiyadan Buxoroga harbiy soqchi bilan yuborilgan savdo karvoni va karvonboshi hamda konvoy otryadining komandiriga berilgan maxsus qo'llanmalar to'g'risida birinchi bo'lib ma'lumot beradi.

1841-yilda Buxoroga kelgan K.F.Butenev amirlikning harbiy holati haqida ma'lumot berib, bu yerda oltita cho'yan quyish qozonlari bo'lganini yozadi.⁷ Unda o'lkada qurilgan dastlabki metall quyish qozonlarida to'plar uchun o'qlar, harbiy va dehqonchilik qurollari yasalgani aytib o'tilgan. K.Butenev Buxoro amirligida metall ishlab chiqarish sanoatiga deyarli e'tabor berilmaganini quyidagicha bayon qildi: “ Buxoroda hatto hunarmandchilik ham mukammalilikning quyi bosqichida turadi, zavodchilik ishi yo'q agar hukumat bundan keyin ham hozirgidek harakat qilsa o'zgarish bo'lishi qiyin. Nihoyatda johil bo'lgan hukumatning zavodlar qurishi haqida so'z ham bo'lishi mumkin emas, chunki bunday zavodlar haqiqiy foyda keltirishini ko'rmaydi. Zavodlar qurish uchun mablag` ham, bilimdon kishilar yetishmaydi ”.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida zikr qilingan manbalar Buxoro va Rossiya imperiyasi o'rtasidagi diplomatik aloqalar haqida shu bilan birga o'sha davrdagi bu davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli to'g'risida ham qimmatli ma'lumot beruvchi manbalar sirasiga kiradi. Shuning uchun ularni bugungi kun nuqtai nazaridan yanada chuqur o'rganish, tahlil qilish alohida ahamiyat kasb etadi.

⁷ Бутенев. К. Заводское дело в Бухаре. СПб. 1842. С.144.